

## Vazifalar va funksiyalar

O'zbekiston Respublikasi parvozlarni xavfsizligini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi 1998 yili 16-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.06.1998 y. dagi 255-son qarori bilan, tarkbidan "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi chiqarilib, Davlat inspeksiyasi bazasida mustaqil yuridik shaxs huquqida tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi parvozlarni xavfsizligini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasining fuqaro va eksperimental aviatsiyasining faoliyati sohasida siyosatni joriy qiluvchi, havo kemalaridan foydalanuvchilar, aviatsiya korxonalarini va tashkilotlari tomonidan havo kemalarining parvoz xavfsizligini ta'minlovchi belgilangan qoidalar va me'yorlarga rioya qilinishini nazorat qiluvchi davlat organidir.

### Davavianazoratning asosiy vazifalari:

- Fuqaro va eksperimental aviatsiya faoliyati sohasida davlat nazorati;
- parvoz xavfsizligini ta'minlash bo'yicha fuqaro aviatsiyasi faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sertifikatlashtirish ishlarni tashkil etish va ta'minlash;
- parvoz xavfsizligini ta'minlash, fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlarini va fuqaro xavo kemalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha normative va qoidalarni takomillashtirish va qayta ishlab chiqish;
- o'z vakolatlari doirasida xavo qatnoviga xizmat ko'rsatish tashkil etilishi va O'zbekiston Respublikasi xavo xududidan foydalanish ustidan nazorat qilish;
- Fuqaro va eksperimental aerodromlarini va fuqaro xavo kemalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- Fuqaro aviatsiyasining aviatsiya texnikasi foydalanish-texnik hujjatlarini, modifikatsiyasini va ishning tamomlashni tasdiqlash;
- Fuqaro va eksperimental xavo kemalari bilan yuz bergan aviatsiya xalokati va bahtsiz hodisalarni surishtirish;
- Fuqaro aviatsiyasida aviatsiya ishlarini bajarish va aeroportlarda xavo tashuvlarini amalga oshirish bilan bog'liq xavo kemalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyatni litsenziyalashni tashkil etish;
- alqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi manfaatlarini ifodalash, «Davavianazorat» inspeksiyasi vakolatlariga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha boshqa davlatlarning aviatsiya ma'muriyatlari va tuzilmalari bilan o'zaro aloqa qilish xamda xamkorlikni ta'minlash.

### Davavianazoratning asosiy vazifalari

Davavianazorat inspeksiyasi o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- **quyidagilarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini tashkil etadi va amalga oshiradi:**  
**parvozlarni tashkil etish, ta'minlash va bajarish qoidalari, fuqaro xavo kemalaridan foydalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatish qoidalari;**  
**fuqaro xavo kemalarini ishlab chiqarish qoidalari (ulardan foydalanish jarayonida ushbu kemalarning parvozlari xavfsizligiga ta'sir qiluvchi ishlab chiqarish nuqsonlari aniqlangan taqdirda);**  
fuqaro va eksperimental aviatsiya aerodromlaridan, birgalikda foydalaniladigan (joylashgan) aerodromlardan fuqaro xavo kemalari qatnovlari xavfsizligini ta'minlashga oid qismi yuzasidan foydalanish qoidalari, shuningdek er ustidagi asbob-uskunalaridan foydalanish qoidalari;  
fuqaro xavo kemalari parvozlari xavfsizligini ta'minlashga tegishli qismi yuzasidan aviatsiya xodimlarini tayorlash qoidalari (xodimlarni tekshirish va ularni ishga qo'yish xam shu jumlagacha kiradi);

fuqaro xavo kemalarining uchishga yaroqliligi normalari;

fuqaro va eksperimental aviatsiya aerodromlari foydalanishga yaroqliligi normalari; fuqaro va eksperimental aviatsiya xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish qoidalari;

aviatsiya xavfsizligini ta'minlash normalari, qoidalari va tartib-qoidalari, shuningdek boshqa normativ hujjatlardagi aviatsiya qoidalari;

**- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarni tashkil etadi va amalga oshiradi:**

**xavo kemalari ekspluatantlarini sertifikatlashtirish, aviatsiya texnikasiga texnika xizmati ko'rsatishni tashkil etish;**

fuqaro va eksperimental aviatsiya aerodromlarini, birgalikda foydalaniladigan (joylashgan) aerodromlarni,

aeroportlarni, aviatsiya xodimlarini, fuqaro aviatsiyasining aviatsiya o'quv markazlarini sertifikatlashtirish;

yagona nusxadagi xavo kemalari turini, ushbu xavo kemalarini ishlab chiquvchilar va ishlab chiqaruvchilarni,

shuningdek faoliyati parvozlarda xavfsizligini ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan fuqaro aviatsiyasining boshqa

ob'ektlari va sub'ektlarini sertifikatlashtirish (tegishli sertifikatlar yoki guvoxonmalar berilgan holda);

fuqaro aviatsiyasi ob'ektlariga xorijiy sertifikatlarni, xorijiy davlatlarning aviatsiya mutaxassislariga berilgan

sertifikatlarni (guvoxonmalarni) e'tirof etish;

**- fuqaro xavo kemalarining uchishga yaroqliyligi normalarini, fuqaro va eksperimental aviatsiya aerodromlari foydalanishga yaroqliligi normalarini, shuningdek: aviatsiya texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish tashkil etishni sertifikatlash;**

fuqaro va eksperimental aviatsiya aerodromlarini, birgalikda foydalaniladigan (joylashgan) aerodromlarni

sertifikatlashtirish;

fuqaro aviatsiyasi aviatsiya o'quv markazlarini, shuningdek faoliyati parvozlarda xavfsizligini ta'minlash bilan bevosita

bog'liq bo'lgan fuqaro aviatsiyasining boshqa ob'ektlari va sub'ektlarini sertifikatlashtirish;

parvozlarni tashkil etish va ta'minlash, fuqaro va eksperimental xavo kemalaridan uchishda va texnik maqsadlarda

foydalanishni tashkil etish, fuqaro xavo kemalari davlat ro'yxatidan o'tkazish, xavo qatnovini tashkil etish, parvozlarni

aerodrom bilan ta'minlash;

xavo kemalarida tashish va aviatsiya ishlari;

aviatsiya xodimlarini kasb faoliyatiga qo'yish tartibi.